

UDK: 619:636.3:595.I2I.5

KARPSIMONLARDA MODDALAR ALMASHINUVI BUZILISHI NATIJASIDA  
KELIB CHIQADIGAN SESTODOZLARNI OLDINI OLISH USULLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH

Bahriddinova Muhlisa Akbarjon Qizi

*talaba*

Mahammadiyev Zohid Nasrillayevch

O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Biologiya va geografiya” kefedrasi assistenti  
(PhD) biologiya

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tabiiy va su’niy suv havzalaridagi urchitilayotgan karpsimon baliqlarda moddalar almashinuvining buzilishi natijasida uchraydigan sestodlarning tarqalish dinamikasi, biologiyasi va ularga ekologik omillarning ta’siri to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan.*

**Abstract:** *This article provides information on the dynamics of distribution of cestodes, biology and the influence of environmental factors on them, which occur as a result of metabolic disorders in carp fish in natural and artificial reservoirs.*

**Kalit so‘zlar:** *metabolitik, parazitafauna, gelmint, sestod, plerotserkoid, ixtiologiya, hidrobiologiya, biologiya, ekologiya, antropogen, zog’ora, karp, karas, chipor do’ngpeshona, oq amur, sistematika.*

**Keywords:** *metabolic, parasite fauna, helminth, cestodes, plerocercoid, ichthyology, hydrobiology, biology, ecology, anthropogenic, carp, carp, crucian carp, white carp, systematics.*

Kirish. Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Xozirgi kungacha Respublikamiz baliqchilik xo’jaliklari, shu jumladan sun’iy suv havzalaridagi o’stiriladigan, urchitiladigan baliqlar orasida moddalar almanishuvi buzilishi ko’proq uchramoqda, lekin bu kabi yuqumsiz kasalliklariga baliqchilikda e’tibor berilmaydi. Bu bir guruh kasalliklar bo‘lib, turli xildagi fiziologik holatning izdan chiqishi va patologoanatomik o’zgarishlar bilan xarakterlanib organizmda turli xil moddalarni yetishmasligi oqibatida kelib chiqadi. Bunda turli xil moddalarni organizmda ozuqa orqali yetarli miqdorda kelib tushmasligi yoki organizmda yetarli miqdorda sintez qilinmasligi oqibatida kelib chiqadi, qaysikim ularning ratsionlarida tabiiy ozuqalar umuman yetarli miqdorda yetishmaydi.

Bu kasalliklarning diagnostika usullari va oldini olishning samarali usullari ishlab chiqilmagan. Bu o’z navbatida baliqchilik xo’jaliklarining iqtisodiy imkoniyatlarini, Respublikamiz iqlimi va mahalliy sharoitlarini va shuningdek ekologik holatni hisobga olgan holda bu baliqlarning ratsioniga tirik tabiiy vitaminga, organik, anorganik va mineral moddalarga boy ozuqalarni kiritish bilan ushbu patalogiyani samarali oldini olish usullarini ishlab chiqishni taqoza etadi. Baliqchilik tarmog‘ini intensifikasiyalashda bunday imkoniyatlar chegaralanganligi sababli ularning ozuqasiga turli xil vitaminli, organik, anorganik va mineral moddali qo’shimchalar, premikslar, drojlar, baliq moyi, ko’k massa, hayvonlarning jigari, ko’k o’t va boshqalar kiritiladi. Baliqlarni sun’iy oziqlantirishda moddalar almashinuvini buzilishini oldini olishda ularning rasiuni tarkibi, tuyimligi va biologik aktiv moddalar bilan balanslangan bo‘lishi kerak.

Baliqchilik mamlakat aholisini parhez go'sht mahsuloti bilan ta'minlashda muhim o'rinni tutadi. Chunki baliq go'shti tarkibi inson organizmi uchun zarur bo'lgan biologik faol moddalar, mineral moddalar va boshqa turdag'i yengil hazm bo'luvchi to'yimli moddalarga boy. Bugungi kunda baliqchilik sohasi minglab insonlarni ish bilan ta'minlashi bilan birga muayyan jamiyatning iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy manbalardan biriga aylangan baliqchilik tarmog'i bugungi kunda jadal suratlar bilan rivojlanib bormoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, qishloq xo'jaligining barcha sohalarida, xususan baliqchilik sohasida ham keng ko'lamdag'i islohotlar amalga oshirildi. Shu jumladan, respublikamizda ovlanadigan baliqlarni ko'paytirish, yangi turlarini introduksiya qilish va akvakulturada baliq yetishtirish borasida muayyan yutuqlarga erishildi.

Baliq o'stirish uchun qulay sharoit Arnasoy ko'lining suvida mavjud bo'lib, zog'ora (sazan), laqqa, peshanado'ng, jerex va boshqa baliqlarning urchish makoni hisoblanadi.

Baliqchilikni rivojlantirishning intensiv usullari, seleksiya ishlari, zotli baliq turlarini o'rghanish va ko'paytirish, oziqlantirishni takomillashtirish va turli xil kasallikkarning oldini olish maqsadida Respublika Baliqchilik ilmiy-amaliy markazi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Sohani rivojlantirish borasidagi tadqiqotlar esa, asosan, O'zbekiston baliqchilikni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan olib boriladi. Demak, xulosa tariqasida aytish mumkinki, O'zbekistonda baliq mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish salohiyati mavjud bo'lib, bunga baliq yetishtirishda zamonaviy akvakultura tizimlarini joriy qilish, mahsulot assortimentini ko'paytirish, tarmoqda ko'rsatilayotgan xizmatlar turini ko'paytirish va yaxshilashni moliyaviy quvvatlash, tadqiq qilish va o'qitish tizimini rivojlantirish orqali erishish mumkin.

Zamonaviy akvakulturaning asosiy yutuqlaridan biri 1 kg maxsus balanslashtirilgan omuxta yem sarflash hisobiga 1 kg baliq o'stirishga erishilganligidir.

Baliq oziq-ovqat mahsulotida juda muhim bo'lganligi uchun sog'liqni saqlash tibbiyoti eng kamida bir kishi bir yilda o'rtacha 12 kg baliq go'shtini iste'mol qilishni tavsiya qiladi.

O'rtacha jahon miqyosida baliq go'shti mahsulotlarini iste'mol qilish bir yilda bir kishi hisobiga 16,6 kg ni tashkil etmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda jami aholi 30 mln dan ortiq bo'lsa, bir kishi bir yilda o'rtacha 0,5 kg dan baliq go'shtini iste'mol qilmoqda. Orol dengizida suvning kamayishi va ba'zi joylarida qurib qolishi natijasida xalqimizni baliq go'shti bilan ta'minlash keskin pasayib ketdi.

Shu nuqtayi nazardan olganda, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida, birinchidan, baliqchilik xo'jaliklarida yuqori sifatlari tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kichik sexlar va qayta ishslash korxonalarini tashkil qilish bilan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish hamda hududlararo baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishslash va sotish bo'yicha yagona maqsadli ishlab chiqarish kooperatsiyalarini tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Respublikamizning sun'iy suv havzalarida intensev usulda yetishtirilayotgan karpsimon baliqlarda uchrayotgan metoboletik kasallikkarga mahalliy probiotik qo'llash orqali baliqlarda uchraydigan metabolitik kasallikkarni oldini olish usullarini ishlab chiqish mavzumizning asosiy maqsadini hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari: - Baliqlar orasida uchraydigan metabolitik kasallikkarga mahalliy probiotikni qo'llash orqali metabolitik kasallikkarni oldini olish;

intensiv usulda yetishtirayotgan karpsimon baliqlarlar orasida uchraydigan metoboletik kasalliklarni sabablari, patologoanatomik o'zgarishlar, klinik belgilari, diagnostika, differensiyal diagnostika va oldini olishga qaratilgan ilmiy manbalarni tahlili etish va xo'jaliklarga keltiradigan iqtisodiy zararini o'ganish;

baliqlarga turli xildagi probiotiklar, vitaminli organik, anorganik va mineral moddalar qo'shimchalar, premikslar, drojjar, suvda eruvchi va yog'da eruvchi vitaminlarni oziqalarga qo'shib qo'llash metabolitik kasalliklarni oldini olishga qaratilgan guruqlik profilaktika tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish.

Tadqiqotlar joyi, obekti va predmeti: Ilmiy tadqiqot ishlari, laboratoriya tekshirishlari Samarqand viloyati Narpay, Kattaqo'rg'on, tumanida hamda Qoraqolpog'iston Respublikasining xususiy baliqchilik xo'jaliklarida polikultura usulida boqilayotgan baliqlarda metabolitik kasalliklar aniqlandi, o'rganildi va baliqlarda umumiy va patologoanatomik tekshiruv o'tkazildi. Tadqiqotning ob'ekti baliqchilik xo'jaliklarida parvarishlanayotgan karpsimon balig'ning 3 oylik segaletkalari hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti baliqlarning klinik, patologoanatomik va gematologik ko'rsatkichlari, baliq ozuqasi, akvarium mahalliy probiotik oksimetri boshqa yordamchi vositalar hisoblanadi.

Tadqiqotning farazlari: Sun'iy suv havzasida Polikultura usulida boqilayotgan baliqchilik fermer xo'jaliklaridagi baliqlar orasida uchraydigan metabolitik kasalliklar ya'ni oqsil, yog', uglevod, vitaminlar va mineral moddalar yetishmovchiliginin sabablari ratsionni balanslashmaganligi, ozuqalar tarkibidagi oqsil va yog'lar miqdorining baliq organizmi ehtiyojlarini qondirmasligi, kislotaliligi yuqori oziqalarning berilishi hisobiga oqsillar ichaklarda so'rilihining yomonlashishi, baliqlar ichagida fermentlar soning kamligi, ushbu murakkab patologiya organizmda modda almashinuvining chuqur buzilishlari bilan kechadi, kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash va oldini olish usullarini ishlab chiqish.

## XULOSALAR

1. Respublikamizda baliqchilik sohasiga bo'lgan e'tabor kundan kunga ortib bormoqda. Hozirgi kunda sun'iy suv havzalarda o'stirilayotgan baliqlar orasida mitabolitik kasalliklari ko'p uchramoqda.
2. Mitabolitik kasalliklari baliqchilik xo'jaliklariga katta iqtisodiy zarar olib kelmoqda.
3. Baliqlarda mitabolitik kasalliklarining klinik belgilari umumiyyatdir, lekin patanatomik o'zgarishlarda bir-biridan farqlash mumkun.
4. Baliqlarda mitabolitik kasalliklar namoyon bo'lganda baliqlar o'sish va rivojlanishdan ortda qolishi, ishtaxasining yuqolishi, koxeksiya, kam harakatchanlik va yuqori darajada o'lim bilan namoyaon bo'ladi.
5. Kasallangan baliqlarni patologik yorib ko'rilmaga jigarning yog'li distrofiyasi, qorin bo'shlig'ida suvni to'planishi, ichaklarda va shilliq pardalarda qizarishlar kabi patologik o'zgarishlarni ko'rish mumkun.

## FOYDANALILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. ПИЩЕНКОЕ.В. ГЕМАТОЛОГИЯ ПРЕСНОВОДНОЙ РЫБЫ" Новосибирск 2002г (17-19c)

2. Yarbekov M.“Havzalarda baliq yetishtirish va mexanizatsiyalashtirish” Toshkent 2013y (149-168 б)
3. Обмен МАКРОЭЛЕМЕНТОВ У АФРИКАНСКИ СОМА ПРИ РАЗНЫХ ИСТОЧНИКАХ ЭКЗОГЕННОГО КАЛЬЦИЯ АВТОРЕФИРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата биологических наук Москва 2009г (11-13с)
- 4.Станковская Т.П. “Технологический атлас рыбовода” Н.Новгород 2010г (145-158с)
- 5.Мирошникова. Е.П., Аринжанова. А.Е., Глушенко. Н.Н., Василевская.С.П. “обмен химических элементов в организме карпа и другие рыбах” вестник огу №6 июнь Минск 2012г (25-28с)
6. Камилов.Г, Кенгерлинский Ф.У, Курбанов Р.Б, Ким С.И. Курбанов А.Р. Валиев Ж.А. “Баликчилик хавзаларини угитлаш” Тошкент 2017й (65-80б)
7. P.S.Naqberdiyev “umumiyyixtiologiya”(ixtiopatalogiya)Toshkent-2013y.
- 8..“ Грищенко Л., Акбаев М., Г.В. Василков Болезни рыб сосновами рыбоводства” колос 1999-й
- 9.КамиловБ.Г. КенгерленискиФ.Й. 2017й.
- 10 Гераситчик В.А.,“Болезни рыб и пчёл” Садовникова Минск э.Ф.2017-й.
11. Абрамов В.Ф, Ананева Н.Б “Болезни рыб и пчёл”.., Тираспол 2015й.
12. Котуранов, П. Н. Морфология рыб./ П. Н. Котуранов. – Горки: БГСХА, 2004. – 112 с.
- 13.Кузнецов, С. Л. Лекции по гистологии, цитологии и эмбриологии: учеб. пособие / Москва: МИА, 2009. – 480 с.
- 14.. Макеева, А. П. Эмбриология рыб /Москва: МГУ, 1992. – 180 с.
- 15 .Иванов, А. А. Физиология рыб / Москва: Изд-во «Лань», 2011. – 288 с.